



SHAHAR TRANSPORT TIZIMIDA “PARK AND RIDE” (P+R) TIZIMINI QO‘LLASH SAMARADORLIGI

Oqilov Mihammadjon Olim o‘gli
Abdurahimov Maqsudjon Alijon o‘gli
magistrant,

Hamroyev Ramzjon Komiljon o‘g‘li
t.f.f.d. (PhD), v.v.b dotsent,


Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yirik shaharlar avtomobil yo‘llarida yuzaga kelayotgan tirbandliklarni kamaytirishning samarali usullaridan biri bo‘lgan “Park and Ride” (P+R) tizimining tashkiliy va funksional xususiyatlari tadqiq etilgan. Tizimning ishlash mexanizmi, afzalliklari hamda xorijiy davlatlarda qo‘llash tajribasi tahlil qilinib, uni joriy etish jarayonida yuzaga keladigan muammolar aniqlangan. Shuningdek, shahar transport tizimida P+R tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Park and Ride, shahar transporti, tirbandlik, jamoat transporti, transport infratuzilmasi.*

Bugungi kunda yirik shaharlarning transport tizimi barqaror rivojlanishiga jiddiy to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillardan biri avtomobil yo‘llarida yuzaga kelayotgan tirbandliklardir. Aholi sonining ortishi, shaxsiy avtomobillar ulushining ko‘payishi va shahar infratuzilmasining cheklanganligi ushbu muammoni yanada keskinlashtirmoqda. Natijada harakat vaqti uzayishi, ekologik yuklamaning ortishi va iqtisodiy yo‘qotishlar yuzaga kelmoqda. Shu sababli shahar transport tizimida jamoat transportiga ustuvorlik beruvchi va shaxsiy avtomobillardan foydalanishni qisqartiruvchi zamonaviy transport yechimlarini joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ana shunday yechimlardan biri “Park and Ride” (P+R) tizimidir.

“Park and Ride” tizimi shaxsiy avtomobil egalari shahar markaziga kirib bormasdan, shahar chekkalari yoki yirik transport uzellari hududida joylashgan maxsus avtoturargohlarda avtomobilini qoldirib, keyingi harakatni jamoat transporti orqali amalga oshirishini nazarda tutadi. Mazkur yondashuv shahar markazidagi avtomobil oqimini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi. Tizim tarkibiga yirik sig‘imli avtoturargohlar, tezkor va ishonchli jamoat transporti yo‘nalishlari, yo‘lovchilar uchun qulay transport almashinuvi hamda iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlari kiradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, P+R tizimidan foydalanish natijasida bitta avtomobil hisobiga karbonat angidrid (CO_2) chiqindilari o‘rtacha 0,8–1,2 kg/kun ga kamayadi. Bu yirik shahar miqyosida yiliga 20–30 ming tonna CO_2 chiqindilarining oldini olish imkonini beradi.



1-rasm. “Park and Ride” (P+R) tizimining ishlash jarayoni

Rivojlangan mamlakatlarda P+R tizimi shahar transport siyosatining muhim elementi sifatida qo‘llanilmoqda. Xususan, Buyuk Britaniyada P+R tizimi joriy etilgan hududlarda shahar markazidagi avtomobil harakati intensivligi o‘rtacha 25–30 % ga kamaygan, jamoat transportidan foydalanish esa 15–20 % ga oshgan. Germaniyada esa P+R avtoturargohlarining metro bekatlari bilan integratsiyasi hisobiga shahar markazidagi to‘xtash joylariga bo‘lgan ehtiyoj 30 % gacha qisqargan.

Xorijiy amaliyot shuni ko‘rsatadiki, “Park and Ride” tizimi joriy etilgan hududlarda shahar markaziga kiruvchi shaxsiy avtomobillar oqimi 20–40 % gacha kamayadi, yo‘l tirbandliklari esa o‘rtacha 15–25 % ga qisqaradi.

Xulosa. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Park and Ride” tizimi shahar avtomobil yo‘llarida tirbandliklarni kamaytirish, transport tizimining samaradorligini oshirish va ekologik holatni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur tizimni ilmiy asoslangan holda rejalashtirish va jamoat transporti bilan uzviy integratsiyalash shahar transport infratuzilmasini rivojlantirishda samarali natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rodrigue, J.-P., Comtois, C., & Slack, B. The Geography of Transport Systems. – New York: Routledge, 2020.
2. Vuchic, V. R. Urban Transit Systems and Technology. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2007.
3. Litman, T. Parking Management Best Practices. – Victoria Transport Policy Institute, 2016.